

O‘ZBEKISTON RESRUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyazmahuquqida

UDK.521.19

MAMADIYOROV ZARIF XUSANOVICH

«KO‘P O‘LCHOVLI TASODIFIY MIQDORLAR UCHUN BA’ZI BIR
NATIJALAR»

5A130102– ehtimollarnazariyasivamatematikstatistikamutaxasisligi bo‘yicha
Magistr-akademik darajasini olish uchun

DISSERTATSIYA ISHI

Ilmiy rahbar:

f-m.f.n., dots. I.B.Xaliqulov

Samarqand – 2015.

MUNDARIJA

KIRISH

I-BOB. Tasodifiymiqdorlarning taqsimot funksiyalari.

1-§. Tasodifiymiqdorlar va ularning taqsimot funksiyakari

2-§. Ko'po'lchovlitasodifiymiqdorlar

II-BOB.

Biro'lchovlitasodifiymiqdorlar uchun tengsizliklar.....

.....

1-§. Ehtimollarni nazariyasining asosiy tengsizliklari.....

2-§. Eksponensial baholar

III-BOB.

Ko'po'lchovlitasodifiymiqdorlarga oid teoremlar.....

.....

1-§. Ko'po'lchovlitasodifiymiqdorlarga oid teoremlar

2-§. Ikkio'lchovlitasodifiymiqdorlar uchun S.N. Bernshteyn tengsizligining analogi

.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Dissertatsiya asoslanishi va uning dolzarbligi: Ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar va ularga oid tengsizliklar, ehtimollar nazaryasining limitik teoremlarini isbotlashda qo'llaniladi. Bu tengsizliklarni olish uchun quyi va yuqoridan baholashdan iborat. Katta sonlar qonuni vakuchaytirikgan kata sonlar qonuni, takroriy logorifim qonunlari ahtimollar nazariyasining muhim tadbiquy masalalardan iborat ekanligidan, ularni isbotlash zarurati tug'iladi.

Ehtimollar nazaryasining asosiy tengsizliklari bir o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun limitik teoremlarini isbotlashda amaliy ahamiyatga ega. Xuddi shunday ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun tengsizliklar, ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun limitik teoremlarni isbotlashda va ularga olib keladigan shartlarni bilish juda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Mazkur magistrlik dissitatsiyasida ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlarga oid tengsizliklar o'rganiladi. Magistrlik disseratsiyasida bir o'lchovli va ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun tengsizliklarolinadi va qanday isbotlash metodlarini o'rganishdan iborat.

Ilmiy tadqiqot metodlari:Ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun tengsizliklarni olishda Yu.V.Proxrov metodidan foydalanib isbotlangan. Ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun tengsizliklar avval bir o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun isbotlanib, keyin yuqoridagi metoddan foydalanib ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun asosiy tengsizliklar isbotlangan.

Ishning ilmiy ahamiyati: Katta sonlar qonuni va kuchaytirilgan katta sonlar qonuni, takroriy logorifim qonunlari ehtimollar nazariyasida muhim tadbiquy masalalarni yechishda qo'llaniladi. Ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun, isbotlangan tengsizliklar ana shunday limitik teoremlarni isbotlashda ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot mavzubo'yicha adabiyotlar sharhi:

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida Б.В.Гнеденко Курстеории вероятностей,

С.Х.Сирожиждинов,

М.М.МаматовЭхтимолларназвриясиваматематикстатистика, В. В.

ПетровСуммынезависимыхслучайныхвеличин, КучкаровЯ. Х.

Вероятностыераспределениясозначениямивпростратанствахизмеримихфункц
ий, ПрохоровЮ.В.

РаспространениенеравенствС.Н.Бернштейнанамногочмерныйслучай kabi
ehtimollar nazariyasiga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqdim va dissertatsiya
mavzusini yozish moboynda bevosita fodalandim.

Ishning ilmiy yangiligi: Mazkur magistirlik dissertatsiyasini yozish
moboynda Б.В.ГнеденковаВ. В. Петровнингusullaridan foydalanib, ehtimollar
nazariyasining asosiy tengsizliklaridan olingan va eksponensial baholar
isbotlangan. ПрохоровЮ.В metodidan foydalanib ikki o'lchovli tasodifiy
miqdorlar uchun, shu tengsizliklarning analoglari keltirilgan.

Ishning amaliy ahamiyati: Ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlar va bir
o'lchovli tasodifiy miqdorlarga oid tengsizliklar ehtimollar nazariyasining barcha
tasodifiy masalalarida muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu tengsizliklarni olishda va
ularni bevosita qo'llashda foydalaniladi.

Ishning tuzilishi: Mazkur magistirlik dissertatsiysi uchta bob va oltita
paragirifdan iborat.

Birinchi bobda tasodifiy miqdorlar va ularning taqsimot funksiyasialari
o'rganilgan.

Ikkinchi bobda ehtimollar nazariyasining asosiy tengsizliklari Chebeshev
tengsizligi, umumlashgan Chebeshev tengsizligi va uning tadbiqlari, Kolmogorof,
Koshi-Bunyakovskiy, Gelder tengsizliklari bir o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun
isbotlangan. Shu bilan birgalikda eksponensial baholar isbotlanib, ya'ni tasodifiy
miqdorlar uchun quyi va yuqoridan baholar olingan.

Uchinchi bobda ko'p o'lchovli tasodifiy miqdorlarga oid teoremlarning
isboti keltirilgan. Ikki o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun S.N.Bernshteyn
tengsizligining analogi isbotlangan. Shu tengsizliklarning shartli bog'liq
bo'lmagan tasodifiy miqdorlar uchun ham o'rinli ekanligi ko'rsatilgan.

Olingan natijalarning qisqacha mazmuni (annotatsiyasi):

Ko'p o'lchovli va bir o'lchovli tasodifiy miqdorlar uchun ehtimollar nazariyasining asosiy tengsizliklari Chebishev, Kolmogorov, S.N.Bernshteyn tengsizliklari isbotlangan.

I-bob

1.1-§. Tasodifiy miqdorlar va ularning taqsimot funksiyalari

Tasodifiy miqdorlar. Tasodifiy miqdor ta'rifini berishdan avval o'lchovli funksiy tushunchasini kiritamiz. Bizga (Ω, F) , (R, G) o'lchovli fazolar va $\xi: \Omega \rightarrow R$ funksiy berilgan bo'lib, bu funksiy uchun $A \in G$ ekanidan $\xi^{-1}(A) = \{\omega: \xi(\omega) \in A\} \in F$

ekani kelib chiqsa, bunday funksiy o'lchovli funksiy deyiladi.

Agar (Ω, F, P) , ixtiyoriy ehtimollik fazosi bo'lsin, har qanday $\xi: (\Omega, F) \rightarrow (R, G)$ o'lchovli funksiy tasodifiy miqdorlar deyiladi. Tasodifiy miqdorning ta'rifiga ko'ra ixtiyoriy $x \in R$ uchun

$$\{\omega: \xi(\omega) < x\} = \{\xi < x\} = \xi^{-1}((-\infty, x)) \in F,$$

chunki $(-\infty, x) \in G$.

Bunda

$$F_{\xi}(x) = P\{\omega: \xi(\omega) < x\}$$

funksiyaning R da aniqlanganligi kelib chiqadi. Bu funksiya ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi deyiladi.

1.1.1-ta'rif. ξ tasodifiy miqdorning x dan kichik qiymatlarini qabul qilish ehtimoliga ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi deyiladi va $F_{\xi}(x)$ kabi belgilanadi, ya'ni

$$F_{\xi}(x) = P\{-\infty < \xi < x\}$$


yoki

$$F_{\xi}(x) = P\{\xi < x\}$$

1.1.2-ta'rif. Tasodifiy sabablarga ko'ra u yoki bu qiymatlarni qabul qiladigan va o'zining taqsimot funksiyaga ega bo'lgan o'zgaruvchi miqdorga tasodifiy miqdorlar deyiladi.

1.1. 3-ta'rif. (Tasodifiy miqdorning abstrakt) Faraz qilaylik (Ω, F, P) , ehtimollar fazosi berilgan bo'lsin. Tasodifiy miqdor deb elementar hodisalar fazosi Ω da aniqlangan $\xi = \xi(\omega), \omega \in \Omega$ o'lchovli funksiyaga aytiladi.

1.1.1-misol. ξ tasodifiy miqdor 1 va 0 qiymatlarni mos ravishda p va q ($p+q=1$) ehtimol bilan qabul qilsin:



$$\xi: 0, 1 \quad p = P\{\xi = 1\}$$

$$q, \quad q = P\{\xi = 0\}$$

Bu holda

$$P\{\xi < x\} = F(x) = \begin{cases} 0, & \text{agar } x \leq 0 \text{ bo'lsa} \\ p, & \text{agar } 0 < x \leq 1 \text{ bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } x > 1 \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

Agar ξ tasodifiy miqdor $0, 1, 2, \dots, n$ qiymatlarni

$$P\{\xi = k\} = C_n^k p^k q^{n-k}, \quad k = \overline{0, n}$$

ehtimol bilan qabul qilsa, bu tasodifiy miqdor binominal, qonun bo'yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi.

Uning taqsimot funksiyasi quyidagicha bo'ladi.

$$F(x) = \begin{cases} 0, & \text{agar } x < 0 \text{ bo'lsa} \\ \sum_{k < x} C_n^k p^k q^{n-k}, & \text{agar } 0 \leq x \leq n \text{ bo'lsa} \\ 1, & \text{agar } x > n \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

1.1.2-misol. Agar ξ tasodifiy miqdor $0, 1, 2, \dots, n, \dots$ qiymatlarni

$$P\{\xi = k\} = \frac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}, \quad \lambda > 0$$


ehtimollar bilan qabul qilsa, uni Puasson qonuni bo'yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi.

Uning taqsimot funksiyasi quyidagicha aniqlanadi.

$$F(x) = \begin{cases} 0, & \text{agar } k < 0 \\ \sum_{k \leq x} \frac{\lambda^k}{k!} e^{-\lambda}, & \text{agar } 0 < k \leq x \end{cases}$$

bo'lsin.

1.1.3-misol. ξ tasodifiy miqdor $[a, b]$ oraliqda tekis taqsimlangan bo'lsin, u tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi quyidagicha bo'ladi.



1.1.4-misol. ξ tasodifiy miqdor $[a, b]$ tekis taqsimlangan bo'lsin, u tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi quyidagicha bo'ladi.

$$F(x) = \begin{cases} 0, & x \leq a \text{ bo'lganda} \\ \frac{x - a}{b - a}, & a < x \leq b \text{ bo'lganda} \\ 1, & x > b \text{ bo'lganda.} \end{cases}$$

1.1.5-misol. Agar tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi

$$\Phi(x) = C \int_{-\infty}^x e^{-\frac{(u-a)^2}{2\sigma^2}} du,$$

ko'rinishda bo'lsin, bunday tasodifiy miqdor normal taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi. Bu erda $C > 0, \sigma > 0, -\infty < a < \infty$ o'zgarish son.

1.1.4-ta'rif. Tasodifiy miqdorning qabil qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari bilan bu qiymatlarga mos keluvchi ehtimollari o'rtasida bog'lanish o'rnatuvchi munosabatga tasodifiy miqdorning taqsimot qonuni deyiladi.

Taqsimot funksiya quyidagi xossalarga ega.

1. Barcha haqiqiy x lar uchun $0 \leq F_{\xi}(x) \leq 1$.

2. $F_{\xi}(x)$ kamaymaydigan funksiya.

Haqiqatan ham, $x_1 < x_2$ bo'lsin. Ushbu

$$A_1 = \{\xi < x_1\}, A_2 = \{\xi < x_2\}, B = \{x_1 < \xi < x_2\},$$

hodisalarni kiritsak;

$$A_2 = A_1 \cup B, A_1 \cap B = \emptyset.$$

Natijada ehtimolning additivlik xossasiga ko'ra

$$P(A_2) = P(A_1) + P(B)$$

yoki

$$0 \leq P(x_1 < \xi < x_2) = P\{\xi < x_2\} - P\{\xi < x_1\} = F(x_2) - F(x_1).$$

Bundan esa $x_1 < x_2$ da $F(x_1) \leq F(x_2)$ bo'lib xossaning isboti kelib chiqadi.

3. Taqsimot funksiya chapdan uzluksiz, ya'ni

$$F_{\xi}(x) = F_{\xi}(x - 0) = \lim_{x_m \uparrow x} F(x_m).$$

Isbot. Faraz qilaylik, $a_1 < a_2 < a_3 < \dots a_n < \dots$ va $n \rightarrow \infty$ da $a_n \uparrow b$ bo'lsin, u holda

$$\bigcap_{n=1}^{\infty} \{\omega: \xi(\omega) \in [a_n, b)\} = V$$

Natijada uzluksizlik aksiomasiga ko'ra

$$F_{\xi}(b) - F_{\xi}(a_n) = P\{\omega: \xi(\omega) \in [a_n, b)\}$$

ifodan $\rightarrow \infty$ da nolga intiladi. Bu esa $F_\xi(x)$ ning chapdan uzliksizligini ko'rsatadi.

Boshqacha isbotini keltiramiz.

$$F_\xi(x) = F_\xi(x - 0), \quad P\{\xi \leq x\} = F(x + 0)$$

$$P\{\xi = x\} = F_\xi(x + 0) - F_\xi(x - 0),$$

xga o'sib intiluvchi $x_1 < x_2 < \dots < x_n < \dots \overline{\lim} x_n = x - 0$.

$$A_n = \{x_n < \xi < x\}, \quad n = 1, 2, \dots,$$

u vaqtda

$$A_n \subset A_{n-1} \subset \dots \subset A_2 \subset A_1, \quad \bigcap_{n=1}^{\infty} A_n = V.$$

U vaqtda uzluksiz aksiomasiga asosan

$$\lim_{n \rightarrow \infty} P(A_n) = P(V) = 0; \Rightarrow \lim_{n \rightarrow \infty} P\{x_n < \xi < x\} = 0$$

$$\lim_{n \rightarrow \infty} [F(x) - F(x_n)] = 0,$$

$$F(x) = \lim_{n \rightarrow \infty} F_\xi(x_n) = F_\xi(x - 0).$$

$$4. \lim_{x \rightarrow -\infty} F(x) = 0, \lim_{x \rightarrow +\infty} F(x) = 1.$$

Isbot. Biz xossani isbotlash uchun ikkita $\{x_n\}$ va $\{y_n\}$ ketma-ketliklarni qaraymizki, bunda $\{x_n\}$ ketma-ketlik $-\infty$ ga monoton kamayadi, $\{y_n\}$ esa $+\infty$ ga monoton o'sadi. $A_n = \{\xi < x_n\}$, $B_n = \{\xi < y_n\}$ belgilashlarni kiritamiz. $x_n \downarrow -\infty$ ligidan A_n to'plamlar ketma-ketligi ichma-ich qo'yilgan bo'ladi va $\cap A_n = \emptyset$. Ehtimolning uzluksizlik aksiomasiga binoan $n \rightarrow \infty$ da $P(A_n) \rightarrow 0$. U holda $\lim_{n \rightarrow \infty} F\{x_n\} = 0$ kelib chiqadi.

Bundan va $F(x)$ funksiyaning monotonligidan $\lim_{n \rightarrow \infty} F\{x_n\} = 0$ ekanligi kelib chiqadi.

$\{y_n\}$ ketma-ketlik $n \rightarrow \infty$ da $+\infty$ ga monoton yaqinlashganligi uchun B_n ketma-ketligi ham o'suvchi bo'ladi va $\cup B_n = \Omega$, binobarin ehtimolning

xossasiga asosan $P(B_n) \rightarrow 1$. Bundan, xuddi avvalgidek, $\lim_{n \rightarrow \infty} F\{y_n\} = 1$, $\lim_{n \rightarrow \infty} F\{y\} = 1$ munosabat kelib chiqadi.

5. Taqsimot funksiyaning sakrashga ega bo'lgan nuqtalari to'plami ko'pi bilan sanoqli bo'lish mumkin.

Agar $x = x_0$ nuqtada $F(x_0 + 0) - F(x_0 - 0) = C_0 > 0$ bo'lsin, funksiya $x = x_0$ nuqtada sakrashga ega bo'lib, uning kattaligi C_0 ga teng bo'ladi.

Isbot. $F(x)$ taqsimot funksiyaning sakrashlari $\frac{1}{2}$ dan katta bo'lgan nuqtalarning soni faqat 1 ta (chunki 2 ta bo'lsin, ularning yig'indisi 1 dan katta bo'ladi, buning esa bo'lishi mumkin emas)

$F(x)$ ning $C_0 > \frac{1}{2}$ bo'lgan sakrashlar soni 1 ta

$F(x)$ ning $\frac{1}{4} < C_0 \leq \frac{1}{2}$ 3 ta

$F(x)$ ning $\frac{1}{8} < C_0 \leq \frac{1}{4}$ 7 ta

.....

$F(x)$ ning $\frac{1}{2^n} < C_0 \leq \frac{1}{2^{n-1}}$ $2^n - 1$ ta.

Bu nuqtalarning ketma-ket nomerlab chiqish mumkin, chunki sanoqli sandagi chekli to'plamlarning yig'indisi yana sanoqli bo'ladi.

1.1.5-ta'rif. Agar ξ tasodifiy miqdor chekli yoki sanoqli sondagi $\{x_k\}$ qiymatlarni $\{p_k\}$ ($\sum_k p_k = 1$) ehtimollar bilan qabul qilsa, uni diskret tasodifiy miqdor deyiladi.

Diskret tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi

$$F(x) = \sum_{\{k: x_k < x\}} p_k$$

formula bilan aniqlanadi.

1.1.6-ta'rif. ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasini

$$F(x) = \int_{-\infty}^x p(u) du$$

ko'rinishda yozish mumkin bo'lsin, bu tasodifiy miqdor absolyut uzluksiz taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi.

Bu erdagi $p(u)$ funksiya ξ tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi deyiladi.



1.1.6 - ta'rifga ko'ra $F'(x) = p(x)$ bo'ladi.

Zichlik funksiya quyidagi xossalarga ega.

1. Zichlik funksiya manfiy emas: $p(x) \geq 0$.

Haqiqatdan ham, $F(x)$ taqsimot funksiyaning kamaymasligidan uning hosilasi deyarli hamma nuqtalarda doim musbat bo'ladi.

2. Agar $p(x)$ zichlik funksiya x_0 nuqtada uzluksiz bo'lsin, u holda $P\{x_0 \leq \xi < x_0 + dx\}$ ehtimol zichlik funksiyaning x_0 nuqtadagi qiymatiga nisbatan yuqori tartibli cheksiz kichik miqdor aniqligida ekvivalent bo'ladi.



$$P\{x_0 \leq \xi < x_0 + dx\} \approx p(x_0)dx$$

$$F(a) = P\{\xi \leq a\} = \int_{-\infty}^a p(x)dx$$

$$P\{a \leq \xi \leq b\} =$$

$$= \int_a^b p(x)dx = \int_{-\infty}^b p(x)dx - \int_{-\infty}^a p(x)dx = F(b) - F(a)$$

3. Zichlik funksiyadan $(-\infty; +\infty)$ oraliq bo'yicha olingan interval 1 ga teng.

$$\int_{-\infty}^{\infty} p(x)dx = 1.$$

Bu bevosita taqsimot funksiya xossasidan kelib chiqadi.

Yuqorida keltirilgan normal taqsimlangan tasodifiy miqdor uzluksiz tasodifiy miqdordir. Normal qonun bilan taqsimlangan tasodifiy miqdorning zichlik funksiya



$$p(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}$$

ga teng. $p(x)$ zichlik funksiya $x = a$ nuqtada eng katta qiymatga erishadi va uning grafigi $x = a$ to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik joylashgan, bu funksiya uchun Ox o'q garizontal asimptota, $x = a \pm \sigma$ nuqtalar bu funksiyaning bukulish nuqtalari bo'ladi. Bularni e'tiborga olsak, $p(x)$ funksiyaning grafigi quyidagicha bo'lishini ko'ramiz.

Xususan $a = 0$, $\sigma = 1$ bo'lganda taqsimot funksiya

$$\Phi_{(0,1)}(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{u^2}{2}} du$$

ko'rinishga ega bo'ladi.



$\Phi_{(0,1)}(x)$ taqsimot funksiya $(0,1)$ – parametrli standart normal qonun deyiladi.

1.1.6-misol. Zichlik funksiyasi

$$p(x) = \frac{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{n\pi}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \left(1 + \frac{x^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}}$$

dan iborat bo'lgan tasodifiy miqdorni erklilik darajasi n bo'lgan Styudent qonuni bo'yicha taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi.

Bu erda $\Gamma(x)$ – gamma funksiyadir. Uning taqsimot funksiyasi quyidagicha bo'ladi

$$\Gamma(x) = \frac{\Gamma\left(\frac{n+1}{2}\right)}{\sqrt{n\pi}\Gamma\left(\frac{n}{2}\right)} \int_{-\infty}^x \left(1 + \frac{u^2}{n}\right)^{-\frac{n+1}{2}} du;$$

Zichlik funksiyasi $p(x) = \frac{1}{\pi(1+x^2)}$ ko'rinishda bo'lgan tasodifiy miqdorni

Koshi qonuni bilan taqsimlangan tasodifiy miqdor deyiladi.

1.2-§ Ko‘p o‘lchovli tasodifiy miqdorlar va ularning taqsimot funksiyalari

Faraz qilaylik, (Ω, F, P) ehtimollik fazosida $\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n$ tasodifiy miqdor berilgan bo‘lsin.

Ushbu $\xi(\omega) = (\xi_1(\omega), \xi_2(\omega), \dots, \xi_n(\omega))$ vektorni qaraylik $\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n$ tasodifiy miqdor yordamida beriladigan $\xi: \Omega \rightarrow R^n$ akslantirish tasodifiy vektor yoki ko‘p o‘lchovli tasodifiy miqdor deyiladi.

Agar R^n dagi Borel to‘plamlari σ – algebrasini $\mathcal{E}$ desak u holda $\Omega \rightarrow R^n$ akslantirishni (Ω, B) fazoni $(R^n, \mathcal{E})$ fazoga o‘lchovli akslantirish deb qaraladi.

Shuning uchun $\forall \mathcal{E}$ Borel to‘plami uchun ξ vektorning taqsimoti deb ataladigan $P_\xi(B) = P\{\xi \in B\}$ funksiya aniqlangan.

Ushbu

$$F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n) = P\{\xi_1 < x_1, \xi_2 < x_2, \dots, \xi_n < x_n\} \quad (1.2.1)$$

funksiya $(\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ tasodifiy vektorning taqsimot funksiyasi yoki $\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n$ tasodifiy miqdorning birgalikdagi taqsimot funksiya deyiladi.

$$1. \lim_{x_n \rightarrow \infty} F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n) = F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_{n-1}}(x_1, x_2, \dots, x_{n-1})$$

$$2. \lim_{x_n \rightarrow -\infty} F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n) = 0$$

Bu erda limit oxirgi argument bo‘yicha olingan, lekin bu shart emas bo‘lib, $\forall$ argument bo‘yicha limitga o‘tish mumkin edi. Bu xossalar bir o‘lchovli kabi isbotlanadi.

3. $F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n)$ taqsimot funksiya har bir argument bo'yicha kamaymaydigan funksiya.

4. $F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n)$ taqsimot funksiya har bir argument bo'yicha chapdan uzluksiz.

5. $F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(+\infty, +\infty, \dots, +\infty) = 1$ munosabat o'rinli.

Ixtiyoriy $F(x_1, x_2, \dots, x_n)$ funksiya no'lchovli tasodifiy vektorning taqsimot funksiyasi bo'lishi uchun yuqorida keltirilgan hossalarga yana, quyidagi hossani qo'shish zarur:

$\forall \alpha_i, \forall \beta_i$ haqiqiy sonlar uchun quyidagi ifoda manfiy emas.

$$P\{\alpha_1 \leq \xi \leq \beta_1, \alpha_2 \leq \xi \leq \beta_2, \dots, \alpha_n \leq \xi \leq \beta_n\} = \\ = F(\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n) - \sum_{i=1}^n p_i +$$

$$+ \sum_{i < j}^2 p_{ij} + \dots + (-1)^n F(\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n),$$

bu erda $P_{i,j,\dots,k}$ bilan $F(\eta_1, \eta_2, \dots, \eta_n)$ funksiyaning

$\eta_i = \alpha_i, \eta_j = \alpha_j, \dots, \eta_k = \alpha_k$ va qolgan η_s larda β_s ga teng qiymatlari belgilangan. $(R^n, \mathcal{E})$ fazoda $P_\xi(B)$ ehtimollik o'lchovining kiritilishi bu o'lchov bo'yicha integrallash imkonini beradi. Agar φ funksiya: $R^n \rightarrow R$ akslantiruvchi Borel funksiya bo'lsin, u holda $\varphi(\xi_1(\omega), \dots, \xi_n(\omega))$ funksiya boshlang'ich fazoni Ω ga o'lchovli akslantiradi hamda

$$\int_{\Omega} \varphi(\xi_1(\omega), \dots, \xi_n(\omega)) P(d\omega)$$

integral aniqlangan bo'ladi. Biz integral ta'rifidan foydalanib, yuqoridagi integral

$$\int_{R^n} \varphi(\vec{x}) p_\xi(d\vec{x}), \quad \vec{x} = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n) \in R^n$$

bilan bir xil ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Xuddi bir o'lchovli tasodifiy miqdor kabi tasodifiy vektorni diskret va absolyut uzluksiz tiplarga ajratib o'rganish mumkin.

1.2.1-ta'rif. Agar chekli yoki sanoqli $\{(x_{m_1}, x_{m_2}, \dots, x_{m_k})\}$ nuqtalar to'plami uchun

$$P\{\xi_1 = x_{m_1}, \xi_2 = x_{m_2}, \dots, \xi_n = x_{m_k}\} = p_{x_{m_1}, x_{m_2}, \dots, x_{m_k}}$$

va

$$\sum_{(x_{m_1}, x_{m_2}, \dots, x_{m_k})} p_{x_{m_1}, x_{m_2}, \dots, x_{m_k}} = 1$$

munosabatlar bajarilsa, u holda $\xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ diskret tipdagi tasodifiy vektor deyiladi.

1.2.2-ta'rif. Agar funksiyap(t₁, t₂, ..., t_n) ≥ 0 bo'lib, tasodifiy vektorning taqsimot funksiyasi ushbu

$$F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n) = \int_{-\infty}^{x_1} \dots \int_{-\infty}^{x_n} p_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(t_1, t_2, \dots, t_n) dt_1, dt_2, \dots, dt_n$$

ko'rinishda bo'lsin, $\xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ absolyut uzluksiz tipdagi tasodifiy vektor deyiladi.

$$\int_{R^n} p(t_1, t_2, \dots, t_n) dt_1, dt_2, \dots, dt_n = 1$$

ekanligi ravshan. Yuqoridagi $p(t_1, t_2, \dots, t_n)$ funksiya

$\xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ tasodifiy vektorning zichlik funksiyasi deyiladi.

Deyarli hamma erda

$$\frac{\partial^n F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n)}{\partial x_1, \partial x_2, \dots, \partial x_n} = p(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

munosabat o'rinli bo'ladi.

Agar

$$F_{\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n}(x_1, x_2, \dots, x_n) = F_{\xi_1}(x_1), F_{\xi_2}(x_2), \dots, F_{\xi_n}(x_n),$$

tenglik bajarilsa, $\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n$ tasodifiy miqdor o'zaro bog'liq emas deyiladi.

1.2.1-misol. n –o'lchovli $a_i \leq \xi_i \leq b_i, i = \overline{1, n}$ parallelepipedda tekis taqsimlangan $\xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ tasodifiy vektorning taqsimot funksiyasi

$$F(x_1, x_2, \dots, x_n) = \begin{cases} 0, & \text{agar hech bo'laganda bitta } i \text{ uchun } x_i \leq a \\ \prod_{i=1}^n \frac{x_i - a_i}{b_i - a_i}, & a_i \leq x_i \leq b_i, i = \overline{1, n} \\ 1, & \text{agar } x_i > b_i, i = \overline{1, n} \end{cases}$$

ko'rinishda bo'ladi.

1.2.2-misol. Zichlik funksiyasi

$$p(x_1, x_2, \dots, x_n) = \frac{\sqrt{|A|}}{(2\pi)^{n/2}} e^{-\frac{1}{2} Q(x_1, x_2, \dots, x_n)}.$$

ko'rinishga ega bo'lgan $\xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ tasodifiy vektor normal qonun bo'yicha taqsimlangan tasodifiy vektor deyiladi, bunda

$$Q(x_1, x_2, \dots, x_n) = \sum_{i,j=1}^n a_{ij} x_i x_j$$

musbat aniqlangan kvadratik forma, $|A| = \det \|a_{ij}\|$.

Xususan $n = 2$ bo'lsin

$$p(x_1, x_2) = \frac{1}{2\sigma_1\sigma_2\sqrt{1-r^2}} e^{-\frac{1}{2(1-r^2)} \left[\frac{(x_1-a)^2}{\sigma_1^2} - 2r \frac{(x_1-a)(x_2-b)}{\sigma_1\sigma_2} + \frac{(x_2-b)^2}{\sigma_2^2} \right]} \quad (1.2.2)$$

bu erda a, b -haqiqiy sonlar, $-1 \leq r \leq 1$, σ_1, σ_2 -musbat sonlar. Agar $r = \pm 1$ bo'lsin, ξ_1 va ξ_2 lar chiziqli bog'langan bo'ladi.

Normal taqsimlangan tasodifiy vektorning taqsimot funksiyasi quyidagicha bo'ladi.

$$\Phi(x_1, x_2, \dots, x_n) = \frac{\sqrt{|A|}}{(2\pi)^{n/2}} \int_{-\infty}^{x_1} \dots \int_{-\infty}^{x_n} e^{-\frac{1}{2} Q(x_1, x_2, \dots, x_n)} dx_1 \dots dx_n.$$

Agar $\xi = (\xi_1, \xi_2)$ vektorning komponentalari normal qonun bo'yicha taqsimlangan bo'lib, ular o'zaro bog'liq bo'lmasa, u holda uning zichlik funksiyasi quyidagiga teng

$$p(x_1, x_2) = \frac{1}{2\pi\sigma_1\sigma_2} e^{-\frac{(x_1-a_1)^2}{2\sigma_1^2} - \frac{(x_2-a_2)^2}{2\sigma_2^2}} \quad (1.2.3)$$

Demak, (1) va (2) larni solishtiradigan bo'lsink $r = 0$ ligini ko'razim, shunday qilib tasodifiy vektorning komponentalari o'zaro bog'liq bo'lmasinva har bir komponentasi normal qonun bo'yicha taqsimlangan bo'lsin $r = 0$ bo'ladi.

Yuqoridagi mulohazalarga asosan, har bir komponentasi normal qonun bo'yicha taqsimlangan $\xi = (\xi_1, \xi_2, \dots, \xi_n)$ tasodifiy vektorning komponentalari o'zaro bog'liq bo'lmasligi uchun $a_{ij} = 0$ ($i \neq j$) bo'lishi zarur va etarliciligini ko'rish qiyin emas.

II-BOB

2.1-§. Ehtimollar nazariyasining asosiy tengsizliklari.

Tasodifiy miqdorning matematik kutilma atrofida tarqoqlik darajasini xarakterlaydigan kattalik, xususan, tasodifiy miqdorning dispersiyasi ekanligi bizga ma'lum. Agar dispersiya kichik son bo'lsa, u holda tasodifiy miqdor qiymatlari matematik kutilma atrofida zichiroq joylashgan bo'ladi. Bu fakti tasdiqlovchi quydagi Chebishev tengsizligini keltiramiz.

Chebishev tengsizligi. Agar ξ tasodifiy miqdor chekli dispersiyaga ega bo'lsa, u holda $\forall \varepsilon > 0$ son uchun ushbu tengsizlik o'rinli bo'ladi.

$$P\{|\xi - M\xi| \geq \varepsilon\} \leq \frac{D\xi}{\varepsilon^2} \quad (2.1.1)$$

Isbot. Agar $F(x)$ ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi bo'lsa, u vaqtda

$$P\{|\xi - M\xi| \geq \varepsilon\} = \int_{|x - M\xi| \geq \varepsilon} dF(x)$$

integrallash sohasini hisobga olsak

$$\frac{|x - M\xi|}{\varepsilon} \geq 1 \text{ yoki } \frac{(x - M\xi)^2}{\varepsilon^2}$$

u vaqtda

$$\int_{|x - M\xi| \geq \varepsilon} dF(x) \leq \frac{1}{\varepsilon^2} \int_{|x - M\xi| \geq \varepsilon} (x - M\xi)^2 dF(x) +$$

$$+ \frac{1}{\varepsilon^2} \int_{|x-M\omega| \geq \varepsilon} (x - M\omega)^2 dF(x) = \frac{1}{\varepsilon^2} \int_{-\infty}^{\infty} (x - M\omega)^2 dF(x) = \frac{D\omega}{\varepsilon^2}$$

Chebishev tengsizligi isbot bo'ldi.

2.1.1-misol. ξ tasodifiy miqdor o'zining sonli xarakteristikalar bilan berilgan

$$M\xi = 1, \quad \sqrt{D\xi} = 0.2, \quad A = \{0.5 \leq \xi \leq 1.5\}$$

hodisani ehtimolini quyidan baholang.

Yechish. Tasodifiy hodisani quydagicha baholaymiz

$$\begin{aligned} \{0.5 \leq \xi \leq 1.5\} &= \{0.5 - M\xi \leq \xi - M\xi \leq 1.5 - M\xi\} = \\ &= \{0.5 - 1 \leq \xi - M\xi \leq 1.5 - 1\} = \{-0.5 \leq \xi - M\xi \leq 0.5\} = \\ &= \{|\xi - M\xi| \leq 0.5\} = \overline{\{|\xi - M\xi| > 0.5\}} \end{aligned}$$

bu yerda chiziq $\{|\xi - M\xi| > 0.5\}$ hodisaga qarama-qarshi hodisa ekanligini anglatadi.

$$P\{|\xi - M\xi| \geq \varepsilon\} \cup \{|\xi - M\xi| < \varepsilon\} = \Omega = (-\infty, \infty)$$

$$P\{|\xi - M\xi| \geq \varepsilon\} + P\{|\xi - M\xi| < \varepsilon\} = P(\Omega) = 1$$

$$P\{|\xi - M\xi| < \varepsilon\} = 1 - P\{|\xi - M\xi| \geq \varepsilon\} \geq 1 - \frac{D\xi}{\varepsilon^2} \quad (2.1.1')$$

Oxirgi tenglikdan quydagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} P\{0.5 \leq \xi \leq 1.5\} &= 1 - P\{|\xi - M\xi| > 0.5\} \\ &= P\{|\xi - M\xi| \leq 0.5\} \end{aligned}$$

Hodisa ehtimolini hisoblashga Chebishev tengsizligini qo'llasak, quydagiga ega bo'lamiz

$$P\{|\xi - M\xi| > 0.5\} \leq \frac{D\xi}{(0.5)^2} = \frac{(0.2)^2}{(0.5)^2} = \frac{4}{25}$$

shunday qilib

$$1 - P\{|\xi - M\xi| > 0.5\} \geq 1 - \frac{4}{25} = \frac{21}{25} = 0.84$$

Umumlashgan Chebishev tengsizligi.

Chebishev tengsizligining tadbqiqini keltirishdan oldin quydagi tenglikni keltiramiz

$$Mg(\xi) = \int_{-\infty}^{\infty} g(x)dF(x) \quad (2.1.2)$$

bu formula $M = \int_{-\infty}^{\infty} xdF(x)$ formulaning umumlashmasidir. (2.1.2) tenglik $\int_{-\infty}^{\infty} |g(x)|dF(x) < \infty$ shartda o'rinli bo'ladi.

2.1.1-teorema. Faraz qilaylik $g(x)$ manfiy bo'lmagan X tasodifiy miqdorning qiymatlar to'plamida kamaymaydiga funksiya bo'lsin. Agar $M(g\xi)$ mavjud bo'lsa, u holda $\forall \varepsilon > 0$ son uchun quydagi tengsizlik o'rinli:

$$P\{\xi > \varepsilon\} \leq \frac{M(g\xi)}{g(\varepsilon)} \quad (2.1.3)$$

Isbot. Faraz qilaylik $F(x)$ ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi bo'lsin, ya'ni $F_{\xi}(x) = P\{\xi < x\}$ u holda (2.1.2) formulaga ko'ra va $g(x)$ funksiyaning xossalriga ko'ra quydagiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned} Mg(x) &= \int_{-\infty}^{\infty} g(x)dF(x) = \int_{-\infty}^{\infty} g(x)dF(x) + \int_{\varepsilon}^{\infty} g(x)dF(x) \geq \\ &\geq \int_{\varepsilon}^{\infty} g(x)dF(x) \geq g(\varepsilon) \int_{\varepsilon}^{\infty} dF(x) = g(\varepsilon)F(x)|_{\varepsilon}^{\infty} = \\ &= g(\varepsilon)[F(+\infty) - F(\varepsilon)] = g(\varepsilon)[1 - F(\varepsilon)] = g(\varepsilon)P\{\xi > \varepsilon\} \end{aligned}$$

bu tengsizlikdan esa teoremaning tasdiqi kelib chiqadi, ya'ni

$$P\{\xi > \varepsilon\} \leq \frac{M(g\xi)}{g(\varepsilon)}.$$

Xususiyl holda, agar ξ manfiy bo'lmagan tasodifiy miqdor bo'lsa, u holda $g(x)$ sifatida $g(x)=x$ deb olib quydagi Chebishev tengsizligini hosil qilamiz:

$$P\{\xi > \varepsilon\} \leq \frac{M\xi}{\varepsilon} \quad (2.1.4)$$

Agar $g(x) = |x|^r, r > 0$, u holda quidagi tengsizlikga ega bo'lamiz

$$P\{|\xi| > \varepsilon\} \leq \frac{M|\xi|^r}{\varepsilon^r}.$$

Ba'zi hollarda bu tengsizlikni Markov tengsizligi deb ham yuritiladi.

Agar $\{\xi_n\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligining har bir hadi uchun

$|\xi|^r, r > 0$ darajasining matematik kutilmasi mavjud bo'lsa, va

$$M\{|\xi_n - \xi| > \varepsilon\} \xrightarrow{n \rightarrow \infty} 0$$

ko'rsatish kerak. Chebishev tengsizligiga ko'ra

$$P\{|\xi_n - \xi| > \varepsilon\} \leq \frac{M|\xi_n - \xi|^r}{\varepsilon^r}$$

bo'ladi, shartga asosan $M|\xi_n - \xi|^r \xrightarrow{n \rightarrow \infty} 0$ bundan esa

$$P\{|\xi_n - \xi| > \varepsilon \xrightarrow{n \rightarrow \infty} 0\}$$

kelib chiqadi. Demak $M|\xi|^r$ bo'yicha yaqinlashish ehtimol bo'yicha yaqinlashishdan iborat ekan, lekin teskarisi o'rinli emas.

2.1.1-misol. Agar $D\xi = 0$ bo'lsa, u holda $P\{\xi = M\xi\} = 1$ ekanligini isbot qilamiz. Haqiqatan $\varepsilon_n = \frac{1}{n}$ deb olsak, u holda

$$P\left\{|\xi - M\xi| > \frac{1}{n}\right\} \leq n^2 D\xi = 0$$

ya'ni $\forall \varepsilon > 0 \quad P\{|\xi - M\xi| > \varepsilon\} = 0$.

bundan kelib chiqadiki

$P\{|\xi - M\xi| > 0\} = 0$ yoki $P\{|\xi - M\xi| = 0\} = 1$ ekan.

Chebishev tengsizligining ba'zi bir tadbirlari.

Chebishev tengsizligi tasodifiy miqdorning o'zining matematik kutilmasidan farqini baholaganligi uchun, uni quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$P\{|\xi - M\xi| > k\sqrt{D\xi}\} \leq \frac{D\xi}{k^2 D\xi} = \frac{1}{k^2} \quad (2.1.5)$$

bu yerda k ixtiyoriy musbat son. U vaqtda quydagini hosil qilamiz:

$$P\{|\xi - M\xi| \leq k\sqrt{D\xi}\} = 1 - P\{|\xi - M\xi| > k\sqrt{D\xi}\} \geq 1 - \frac{1}{k^2} \quad (2.1.6)$$

2.1.2-misol. $k=3$ deb olsak, u holda $1 - 1/9 = 8/9$ dan katta ehtimollik bilan ξ tasodifiy miqdorning qiymati $(M\xi - 3\sqrt{D\xi}, M\xi + 3\sqrt{D\xi})$ intervalda yotadi, ya'ni

$$\begin{aligned} P\{|\xi - M\xi| > 3\sqrt{D\xi}\} &= P\{-3\sqrt{D\xi} < \xi - M\xi < 3\sqrt{D\xi}\} = \\ &= P\{M\xi - 3\sqrt{D\xi} < \xi < M\xi + 3\sqrt{D\xi}\} \geq 1 - \frac{1}{9} = \frac{8}{9}. \end{aligned}$$

Faraz qilaylik ξ tasodifiy miqdor a, σ^2 parametirli normal qonun bilan taqsimlangan bo'lsin. $P\{|\xi - a| \leq 3\sigma\}$ hodisa ehtimolini (2.1.5) baho bilan solishtiramiz. $\frac{\xi - a}{\sigma}$ tasodifiy miqdor 0 va 1 parametirli normal qonun bilan taqsimlangan, haqiqatan

$$M\left(\frac{\xi - a}{\sigma}\right) = \frac{M(\xi - a)}{\sigma} = \frac{M\xi - a}{\sigma} = \frac{a - a}{\sigma} = 0$$

$$D\left(\frac{\xi - a}{\sigma}\right) = \frac{D(\xi - a)}{\sigma^2} = \frac{D\xi}{\sigma^2} = \frac{\sigma^2}{\sigma^2} = 1$$

bu yerda ξ tasodifiy miqdorning matematik kutulmasini $M\xi = a$ va dispersiyasini $D\xi = \sigma^2$ bilan belgilanadi, u vaqtda

$$P\{|\xi - a| < 3\sigma\} = P\left\{\left|\frac{\xi - a}{\sigma}\right| < 3\right\} = \Phi(3) - \Phi(-3).$$

Bizga ma'lumki ξ tasodifiy miqdor 0 va 1 parametirli normal qonun bilan taqsimlangan bo'lsa, uning taqsimot funksiyasi quydagicha bo'ladi:

$$\phi(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{(z-a)^2}{2\sigma^2}} dz$$

ga teng bo'ladi. Integral ostidagi

$$\varphi(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}$$

funksiya esa shu tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi deyiladi.

$a = 0, \sigma = 1$ bo'lsa $\varphi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{x^2}{2}}$ ga teng bo'ladi.

Haqiqatan ehtimol bo'yicha yaqinlashish ta'rifiga asosan $\forall \varepsilon > 0$ uchun

$$P\{|\xi_n - \xi| > \varepsilon\} \xrightarrow{n \rightarrow \infty} 0$$

ko'rsatish kerak. Chebishev tengsizligiga ko'ra

$$P\{|\xi_n - \xi| > \varepsilon\} \leq \frac{M|\xi_n - \xi|^r}{\varepsilon^2}$$

bo'ladi, shartga asosan

$$M|\xi_n - \xi|^r \xrightarrow{n \rightarrow \infty} 0.$$

Bundan esa

$$P\{|\xi_n - \xi| > \varepsilon\} \xrightarrow{n \rightarrow \infty} 0$$

kelib chiqadi. Demak $M|\xi|^r$ bo'yicha yaqinlashish ehtimol bo'yicha yaqinlashishga nisbatan kuchliroq ekan, lekin teskarisi o'rinli emas.

$$P\{|\xi - M\xi| \leq k\sqrt{D\xi}\} = 1 - P\{|\xi - M\xi| > k\sqrt{D\xi}\} = 1 - \frac{1}{k^2} \quad (2.1.7)$$

Masalan $k=3$ deb olsak, u holda $1-1/9=8/9$ dan katta ehtimollik bilan, ξ tasodifiy miqdorning qiymati

$$(M\xi - 3\sqrt{D\xi}, M\xi + 3\sqrt{D\xi})$$

intervalda yotadi, ya'ni

$$\begin{aligned} P\{|\xi - M\xi| > 3\sqrt{D\xi}\} &= P\{-3\sqrt{D\xi} < \xi - M\xi < 3\sqrt{D\xi}\} = \\ &= P\{M\xi - 3\sqrt{D\xi} < \xi < M\xi + 3\sqrt{D\xi}\} \geq 1 - \frac{1}{9} = \frac{8}{9} \end{aligned}$$

Faraz qilaylik ξ tasodifiy miqdor a, σ^2 parametrlil normal qonun bilan taqsimlangan bo'lsin.

$P\{|\xi - a| \leq 3\sigma\}$ hodisa ehtimolini (2.1.4) baho bilan taqsimlangan, haqiqatan

$$\begin{aligned} M\left(\frac{\xi - a}{\sigma}\right) &= \frac{M(\xi - a)}{\sigma} = \frac{M\xi - a}{\sigma} = \frac{a - a}{\sigma} = 0 \\ D\left(\frac{\xi - a}{\sigma}\right) &= \frac{D(\xi - a)}{\sigma^2} = \frac{D\xi}{\sigma^2} = \frac{\sigma^2}{\sigma^2} = 1 \end{aligned}$$

Bu yerda ξ tasodifiy miqdorning matematik kutulmasini $M\xi = a$ va dispersiyasini $D\xi = \sigma^2$ bilan belgiladik. U vaqtda

$$P\{|\xi - a| < 3\sigma\} = P\left\{\left|\frac{\xi - a}{\sigma}\right| < 3\right\} = \Phi(3) - \Phi(-3).$$

Bizga ma'lumki ξ tasodifiy miqdor 0 va 1 parametrlil normal qonun bilan taqsimlangan bo'lsa, uning taqsimot funksiyasi quydagicha bo'ladi:

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{z^2}{2}} dz$$

umumiy holda a, σ^2 parametrlil ξ tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi

$$\Phi(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^x e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}} dz$$

ga teng bo'ladi. Integral ostidagi

$$\varphi(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}$$

funksiya esa shu tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi deyiladi. $a = 0, \sigma = 1$ bo'lsa

$$\varphi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{x^2}{2}}$$

ga teng bo'ladi.

Shunday qilib

$$\begin{aligned} P\{|\xi - a| < 3\sigma\} &= P\left\{\left|\frac{\xi - a}{\sigma}\right| < 3\right\} = \Phi(3) - \Phi(-3) = \\ &= \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx - \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{-3} e^{-\frac{x^2}{2}} dx = \\ &= \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx + \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx = \end{aligned}$$

biz ikkinchi integralda $x=-x$ almashtirish olsak, shuning uchun integral oldiga minus ishorasi chiqib qoladi

$$= \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx - \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_3^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2}} dx =$$

yana ikkinchi integralda, integrallash chegarasini o'zgartirib yozdik.

$$\begin{aligned} &= \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx - \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \left(\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2}} dx - \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx \right) = \\ &= \frac{2}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx - \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2}} dx = \frac{2}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx - \frac{\sqrt{2\pi}}{\sqrt{2\pi}} = \\ &= \frac{2}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^3 e^{-\frac{x^2}{2}} dx - 1 = 2\Phi(3) - 1 \approx 0.997. \end{aligned}$$

Shunday qilib ξ tasodifiy miqdor (a, σ^2) parametirli normal qonun bilan taqsimlangan bo'lsa, u vaqtda 0.997 ehtimol bilan $a - 3\sigma < \xi < a + 3\sigma$ tengsizlik bajariladi. Bunga ehtimollar nazariyasida uch sigma qoidasi deb ataladi.

1. Agar ξ va η tasodifiy miqdor uchun $M\xi^2 < +\infty, M\eta^2 < +\infty$ chekli bo'lsa, u vaqtda Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi o'rinli bo'ladi:

$$(M\xi\eta)^2 \leq M\xi^2 M\eta^2 \text{ yoki } M|\xi\eta| \leq \sqrt{M\xi^2} \sqrt{M\eta^2} \quad (2.1.8)$$

haqiqatan kvadrat uchhad manfiy emas

$$M(\xi + t\eta)^2 = M\xi^2 + 2tM\xi\eta + t^2 M\eta^2$$

shuning uchun uning diskriminanti musbat emas.

$$(2M\xi\eta)^2 - 4M\xi^2 M\eta^2 \leq 0 \Rightarrow (M\xi\eta)^2 \leq M\xi^2 M\eta^2$$

Lekin $M\xi\eta$ mavjudligi $|\xi\eta| \leq \frac{1}{2}(\xi^2 + \eta^2)$ tengsizlikdan kelib chiqadiki, qaysiki $M\xi^2 < +\infty, M\eta^2 < +\infty$ ekanligidan $M|\xi\eta| < +\infty$ kelib chiqadi.

2. Agar $M\xi^2 < +\infty$ va $M\eta^2 < +\infty$ bo'lsa, u vaqtda Shvars tengsizligi o'rinli:

$$\sqrt{M(\xi + \eta)^2} \leq \sqrt{M\xi^2} + \sqrt{M\eta^2} \quad (2.1.9)$$

Haqiqatdan (2.1.8) tengsizlikdan quydagiga ega bo'lamiz:

$$M(\xi + \eta)^2 = M\xi^2 + 2M\xi\eta + M\eta^2 \leq M\xi^2 + 2\sqrt{M\xi^2 M\eta^2} + M\eta^2$$

$$M(\xi + \eta)^2 \leq (\sqrt{M\xi^2} + \sqrt{M\eta^2})^2$$

Har ikkala tomondan kvadrat ildiz olsak (2.1.9) tengsizlik kelib chiqadi.

3. Faraz qilaylik $p > 1, q > 1, 1/q + 1/p = 1$ bo'lsin va ξ va η tasodifiy miqdorlar uchun $M|\xi|^p < +\infty, M|\eta|^q < +\infty$ bo'lsa u vaqtda quydagi Gelder tengsizligi o'rinli:

$$M|\xi\eta| \leq (M|\xi|^2)^{1/p} * (M|\eta|^2)^{1/q} \quad (2.1.10)$$

Gelder tengsizligining xususiy holi, ya'ni $p=q=2$ Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi kelib chiqadi.

